

**«MAHALLA VA OILA» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2021.Ped/S.127.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ADILOVA SHOXIDA TO‘YChIEVNA**

**SHAXSDA SUITSID OLDI XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYa FANLARI BO‘YICHa FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYaSI  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2022**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (ПхД) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
psychological Sciences**

**Adilova Shoxida To‘uchievna**

Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik  
xususiyatlari..... 3

**Adilova Shoxida To‘uchievna**

Психологические особенности формирования предсуицидного поведения у  
человека.....26

**Adilova Shoxida To‘uchievna**

Psychological features of the formation of pre-suicidal behavior in a  
person.....52

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 56

**«MAHALLA VA OILA» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2021.Ped/S.127.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ADILOVA SHOXIDA TO‘YCHIEVNA**

**SHAXSDA SUITSID OLDI XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Psixologiya fanlari bo'yisha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/P235 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (Psi-ik.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.Ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Fayzieva Mavluda Xudayorovna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Samarov Rustamjon Sadriddinovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sirliyev Baxtiyor Nazarovich**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakshi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi «Mahalla va oila» ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01. raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2023-yil «22» fevral soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'shasi, 15 uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71)267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz , mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya bilan «Mahalla va oila» ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14 raqam bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'shasi, 15 uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz , mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» fevral kuni tarqatildi.  
(2023-yil «11» fevral dagi 14 - raqamli reestr bayonnomasi).



**N.M.Egamberdiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**X.U.Abdusamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**B.M.Umarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda insonlarning o'z joniga qasd qilishini kamaytirish, suitsidning paydo bo'layotgan yangi shakllariga qarshi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gallup ijtimoiy xizmat agentligining ma'lumotlariga ko'ra, yiliga 730 ming kishi o'z joniga qasd qiladi<sup>1</sup>. O'z joniga qasd inson hayoti davomida 16-27 yosh oralig'ida qayd etilganligi aniqlangan. O'z joniga qasd qilishning asosiy xavf tug'diruvchi psixologik omili sifatida o'spirin va yetuklik davrining dastlabki bosqichidagi o'lim sabablari orasida suitsidning yuqori darajada sodir etilishi xolatining ko'payishi suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini oldini olish, uning holati va xatti-harakatlarini kuzatib borish orqali psixoprofilaktik choralarni qo'llash masalalarini dolzarblashmoqda.

Jahonda suitsidga sabab bo'luvchi omillar, suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari, o'z joniga qasd qilishning ko'plab shart-sharoitlarini o'rganish bo'yicha ko'pgina ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro ilmiy markazlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Suitsidni sodir etayotgan shaxsning o'zidan, uning ruhiy olamidan qidirish, bartaraf etish uchun esa shunday holatlarga tushib qolishi mumkin bo'lgan odamlarning ichki dunyosini, ta'lim muassasalarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog'liq psixologik muammolarni aniqlash asosida bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilishning sabablarini o'rganish, insonlarning psixologik salomatligini saqlash, qonuniy jihatdan himoya qilish qilishga oid vazifalarni bajarish uchun zarur asoslar yaratilmoqda: «O'tgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holati buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash vareabilitatsiya qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar amalga oshirildi»<sup>2</sup>. O'z joniga qasd qilish muammosida ko'proq psixologik omillar - insonlarning individual xususiyatlari, ularning qadriyatlarini, e'tiqodi, hayot mazmunini yo'nalganligi, yoshlardagi o'z joniga qasd qilish muammosining bartaraf etish tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangi amaliy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>1</sup> <https://www.gallup.com/home>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 13 февралдаги ПҚ-4190-сон «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг рухий саломатлигини муҳофаза қилиш хизматини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори.

to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborot lashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirga qadar suitsidal xulq -atvor va suitsidal xavf omillari bir qator mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimiz psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov, U.D.Qodirov, Z.R.Ibodullaev, N.A.Sog'inov, R.S.Samarov, V.M.Karimova K.B.Qodirov, B.M.Umarov, Yu.M.Asadov, E.J.Nurymbetovalarning tadqiqot larida shaxs, xulq, deviant xulq, suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari ham ushbu masala borasida o'ziga xos ilmiy yondoshuvlar yaratilgan bo'lib, ular ichida eng so'ngi, yaqin o'n yil ichida amalga oshirilgan tadqiqotlar qatoriga A.B.Xolmogorova, A.B.Мырзин, V.V.Korchagin, E.G.Abakarov, G.S.Bannikov, D.Yum, I.V.Borisov, A.V.Borisov, P.V.Kuznesov, A.M.Mamchenko, A.A.Mid ko, N.V.Vereshagina, N.N.Spaderova, A.R.Korshunova, V.A.Rozano va, Ye.G.Doorseva kabilarning izlanishlarini kiritish mumkin. Ular tomonidan suitsid xulq-atvor va uni oldini olishning kommunakatsion jihatlari ajratilib, ularga ommaviy axborot vositalari, televideniya, matbuot jurnallaridagi ma'lumotlar kabilarni kiritish mumkin ta'kidlaganlar. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar tomonidan suitsidal xulq namoyon bo'lishining ontologik jihatlari, suitsidni o'rganishning ekzistensial usullari, turli yosh bosqichlarida suitsid xulq-atvorga olib keluvchi vaziyatlar va ularning motivlari batafsil o'rganilgan.

Mazkur muammoga bag'ishlangan e'tiborga molik zamonaviy xorij tadqiqotlariga S.Saynak, S.Fazel, A.Patriciya, D.Pratt, T.Qiu, D.Radeloff, A.Tees, A.Wenzel, K.A. Van Orden, J.Bridge kabi olimlarning izlanishlarini misol qilish mumkin. Mazkur tadqiqotchilar suitsid oldi xulq -atvor namoyon bo'lishining o'ziga xosliklarini psixiatrik, yuridik psixologiya va ijtimoiy -psixologiya kabi sohalar orqali yetarlicha o'rganishgan.

Biroq, aynan suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari masalasi, ko'p holatlarda e'tibordan chetda qolgan. Mazkur nomlari qayd etilgan barcha olimlarning ilmiy izlanishlari va yondoshuvlari dissertatsiya ishimizning ilmiy g'oyasiga, nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetining «Psixologiya» kafedrasida olib borilayotgan ilg'or, ilmiy-uslubiy tadqiqot ishlarining istiqbol rejaları bilan uzviy bog'liq.

**Tadqiqotning maqsadi** shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari :**

shaxsda suitsid oldi xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini va shakllanish shart-sharoitlarini tadqiq etish;

suitsid oldi xulq-atvor namoyon bo'lganda, shaxsning hayotga nisbatan intilish qobiliyati darajasi xususiyatlarini o'rganish;

shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarning mazmunini ilmiy asoslashga doir metodologik yondashuvlarni asoslash;

shaxsda suitsid oldi xulq-atvor namoyon bo'lishini psixodiagnostik baholash hamda uning profilaktikasini amalga oshirish yuzasidan psixokorreksion dastur va uning modelini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida suitsid oldi omillarini mavjudligini aniqlash maqsadida Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetining 20-25 yosh oralig'idagi oila qurgan talabalardan iborat jami 280 nafar respondentlar jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** talaba yoshlarda suitsid oldi xulq-atvorning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida T.N.Ruzaevaning «O'z joniga qasd qilish xavfi bo'yicha» so'rovnomasi; Dj.Amirxonning «Koping-indikator» so'rovnomasi; G.Shmeshik va K.Leongardlarning «Xarakter aksentuatsiyasi» so'rovnomasi; A.A.Bakanovanning «Hayotga, o'limga va inqirozli vaziyatlarga munosabat» kabi so'rovnomalari hamda parametrik va noparametrik mezonlar va K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

shaxsda individual-kognitiv jarayonlarni shakllanish bosqichlariga ko'ra, distal omillar ta'sirida tafakkurning rigidlik, demonstrativlik va pedantiklik xususiyatlarini dezintegratsiya va dezadaptatsiya natijasida suitsid oldi xulq-atvorning namoyon bo'lishi dalillangan;

hayot indikatorlariga tashqi omillarning ta'siriga oqibatida, tez xafa bo'lish, umidsizlik, o'zini kamsitish, ko'ngilchanglik, murosasizlik, tobelik natijasida autoagressiv xatti-harakat namoyon tufayli shaxsda o'z joniga qasd qilish ehtimolining prognozlashtirish dalillangan;

shaxsda inqirozli vaziyatlarni namoyon bo'lishiga ko'ra, xulq-atvorda «affektivlik», «anormal-emotsional idrok» va emotiv xususiyatlarni «proksimal», «distal» va «fiziologik» disfunktsional o'zgarishlarishi natijasida shaxsda o'lim instinktini dominant bo'lishi dalillangan;

kognitiv va konativ faktorlarning statik ta'siriga ko'ra, shaxslardagi «autoverbal agressivlik», «suitsidual risk», «gipertoniya moyillik», «nevrotik

deprecciya» va «yurak miokard infarkti» xavfining ortishi tufayli qizlarda suitsidual xatti-harakatlarning takrorlanish chastotasi davomiy ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

respublika miqyosida, oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba yoshlarda namoyon bo'luvchi suitsid oldi xulq-atvor belgilari va uni baholovchi psixodiagnostik test va so'rovnomalar amaliyotga olib chiqildi;

turli yosh bosqichidagi shaxslarda suitsid oldi xulq-atvorga sabab bo'luvchi omillarning oldini olish orqali, ulardagi kasbiy-psixologik ko'nikmalari va hayotiy tajribalarining psixologik jihatdan shakllanishi va barqaror kechishini ta'minlovchi sifatlar aniqlangan;

oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalar (oilali) faoliyatida yuzaga keluvchi suitsid oldi xulq-atvor va uning belgilarini psixodiagnostik baholash bo'yicha, ilmiy-amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar tizimlashtirildi va ulardan amaliy psixologlar faoliyatida qo'llash mumkinligi tavsiya etildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan metodologik bazaning to'g'riligi, psixologik tadqiqot metodikalaridan foydalanilganligi, ishonchliligi hamda empirik natijalarning maqsadga muvofiq analiz va sintez qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning matematik statistika metodlarini samarali qo'llashga imkon beruvchi SPSS 22 dasturi kabi tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi yuqori kurs talabalar va yosh oilalarning keyingi hayotiy vaziyatlar davomida suitsid oldi xulq-atvor shakllanishini oldini olishning psixologik xususiyatlariga oid nazariy hamda metodologik jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, shuningdek, qo'lga kiritilgan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida «Yosh davrlar psixologiyasi», «Pedagogik psixologiya», «Suitsidologiya», «Psixologik xizmat va maslahat», «Umumiy psixologiya», «Tibbiyot psixologiyasi» kabi fanlarni ilmiy manbaalar bilan boyitishga va nazariy metodologik asoslarini takomillashuviga keng xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, oliy o'quv yurtlari talaba yoshlarining suitsid xulq-atvorga moyilligini baholovchi tizimlash tirilgan psixodiagnostik metodikalarni amalda qo'llash imkoniyati hamda suitsid oldi harakatlarni koping strategik yengish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar majmuidan, amaliy psixolog mutaxassislarini o'qitish va ularning malakasini oshirish ishlarida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan esa, oliy ta'lim muassasalari psixologi, maktab amaliyotchi psixologi hamda mahallalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar keng ko'lamda foydalanishlari mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

shaxsda individual-kognitiv jarayonlarni shakllanish bosqichlariga ko'ra, distal omillar ta'sirida tafakkurning rigidlik, demonstrativlik va pedantiklik xususiyatlarini dezintegratsiya va dezadaptatsiya natijasida suitsid oldi xulq-atvorning namoyon bo'lishi dallilanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2-sonli buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2021 yil 26 avgustdagi P-M-63-son ma'lumotnoma). Natijada o'smirlar o'rtasidagi suitsidal harakatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan psixoprofilaktik tadbirlarni amalga oshirishda milliy odatlar, an'analar, qadriyatlardan keng foydalanishga oid bilimlarni yanada boyitishga xizmat qilgan;

hayot indikatorlariga tashqi omillarning ta'siriga oqibatida, tez xafa bo'lish, umidsizlik, o'zini kamsitish, ko'ngilchanglik, murosasizlik, tobelik natijasida autoagressiv xatti-harakat namoyon bo'lishi shaxsda o'z joniga qasd qilish ehtimolining prognozlashtirish vositasi ekanligi isbotlanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2-sonli buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Oila psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2021 yil 26 avgustdagi P-M-63-son ma'lumotnoma). Bu esa, pedagoglar va amaliyotchi psixologlarda suitsid oldi xulq-atroni oldini olishni mustahkamlashning metodik ta'minotini kuchaytirishga xizmat qiladi;

shaxsda inqirozli vaziyatlarni namoyon bo'lishiga ko'ra, xulq-atvorda «affektivlik», «anormal-emotsional idrok» va emotiv xususiyatlarni «proksimal», «distal» va «fiziologik» disfunktsional o'zgarishlarishi natijasida shaxsda o'lim instinktini dominant bo'lishi dalillanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2-sonli buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi» fani mazmuniga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2021 yil 26 avgustdagi P-M-63-sonli ma'lumotnoma). Bu esa ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar va amaliyotchi psixologlar faoliyatining metodik bazasi ta'minotini yaxshilashga yordam beradi.

kognitiv va konativ faktorlarning statik ta'siriga ko'ra, shaxslardagi «autoverbal agressivlik», «suitsidual risk», «gipertoniya moyillik», «nevrotik depreziya» va «yurak miokard infarkti» xavfining ortishi tufayli qizlarda suitsidual xatti-harakatlarning takrorlanish chastotasi davomiy ekanligi aniqlanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2-sonli buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi» fani mazmuniga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2021 yil 26 avgustdagi P-M-63-sonli ma'lumotnoma). Bu esa ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar va amaliyotchi psixologlar faoliyatining metodik bazasi ta'minotini yaxshilashga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni OAK tasarrufida 4 ta xorijiy, 4 ta mahalliy va 7 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, bulardan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 ta paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, ob'ektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Suitsid oldi xulq-atvor muammosini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda suitsid fenomeni psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilganligi keltirilgan. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda suitsid oldi xulq-atvor muammosining o'rganilishi talqin qilingan. Shuningdek, suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

O'z joniga qasd qilish jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o'zi yecha olmagan yoki odatiy, hammaga ma'qul bo'lgan yo'l orqali yechishni istamagan muammolar borligidan, shaxsiy musibat, umidsizlik va tushkunlik bilan bog'liq tashvish mavjudligidan darak beradi. Suitsid ijtimoiy xodisa xisoblanadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har bir davrda ma'lum miqdorda suitsidal xarakterlar va suitsid amalga oshirilgan. Albatta har bir suitsidni amalga oshirgan shaxs ma'lum bir individual omillarga asoslanib bu qaroriga keladi.

Haqiqiy suitsid odamda o'z joniga qasd qilish uchun jiddiy sabablar borligi bilan xarakterlanadi. Odatda, uni qariyalar yoki o'smirlar amalga oshiradi. Bu yosh toifasidagi kishilar boshqalardan ko'ra ko'proq o'z-o'zini tahlil va tanqid qilishga moyillar, shuning uchun ular orasida o'zini o'zi o'ldiradiganlar ko'p uchraydi. O'rta yoshdagilar yo ota-onalari, yoki farzandlari oldida javobgarlik his qiladilar, shuning uchun ular bunday harakatlarni kamdan-kam sodir etadilar. Suitsidning bu turida odamlar ko'pincha ruhiy tanglikni his qiladilar, ularda siqilish kayfiyati kuzatiladi va hayotning mazmuni qolmaydi.

Suitsidga jiddiy kirishgan shaxsning motivlarini agar sal e'tiborliroq bo'linsa, uning xatti-harakatidan payqash mumkin. U hech qachon to'satdan, impulsiv bo'lmaydi, balki ma'lum muddat suitsidoldi harakatlar mahsuli sifatida baholanadi.

Statistika ma'lumotiga ko'ra, suitsidni amalga oshiruvchilarning aksariyati o'z maqsadlarini u yo bu tarzda atrofdagilarga ayon qilishadi. Ko'p hollarda ular ota-onasiga, pedagoglariga, psixologlarga, shifokorlarga murojaat qilishadi. Juda ko'p holatlarda o'z joniga qasd qiluvchilar ambivalent, ya'ni ikkilanish kayfiyatida bo'lishadi.

Boshqacha aytganda, g'ayriixtiyoriy, ko'p holda - irratsional turtkiga bo'ysuna turib, odam uni batamom oshkora – ratsional sabablar bilan oqlashga harakat qiladi. Biroq, mazkur holatda g'ayriixtiyoriy o'zini o'zi o'ldirish fikri tashqi, oshkora omillar tahlilidan ko'ra ancha muhimroq bo'ladi. Suitsidal xulq-

atvorli shaxslarning aksariyat qismi uchun kishining hodisalarga ta'sirchanligi turlicha ekanligi xosdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Suitsid oldi xulq-atvor shakllanishini tadqiq etishning metodologik xususiyatlari”**ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda shaxsda suitsid oldi xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik tabiati, suitsid oldi xulq-atvorni tekshirishning psixodignostik imkoniyatlari va suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik sifatlar ko'rib chiqilgan.

O'zini o'zi o'ldirishni o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ularning soni ortishi yosh davrlari, jinsi, ijtimoiy ahvoli va hokazolar va lekin birinchi navbatda – kishi shaxsiyatining xususiyatlariga bog'liq. Erkaklar orasida o'zini o'zi o'ldirish soni ayollarga nisbatan ko'proq kuzatiladi. Shu bilan bir vaqtda erkaklar o'zini osish, o'qotar qurol ishlatish kabi «ishonchliroq» bo'lgan usullarni qo'llasa, ayollar ko'proq katta dozada dorilar qabul qilishni afzal ko'radilar, ya'ni ular go'yo o'zlarining o'limdan keyingi tashqi ko'rinishlari haqida qayg'uradilar.

O'z joniga qasd qilish jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o'zi yecha olmagan yoki odatiy, hammaga ma'qul bo'lgan yo'l orqali yechishni istamagan muammolar borligidan, shaxsiy musibat, umidsizlik va tushkunlik bilan bog'liq tashvish mavjudligidan darak beradi. O'z joniga qasd qilishga ko'pincha uzoq davom etadigan kasallik, ba'zan esa nogironlik ham sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy omillar orasida o'zini o'zi o'ldirishning qishloq joylariga nisbatan ko'proq yirik shaharlarda sodir etilishi, professional va ijtimoiy maqomga bog'liqligini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, suitsid oldi xulq masalasiga oid chet el psixologlarining ilmiy mulohazalarini tadqiq etishning metodologik asoslari yoritib berilgan. Bundan tashqari shaxsda suitsid oldi xulq-atvorni oldini oluvchi munosabatlar amaliy jihatdan tahlil qilingan, yosh oilalar va talabalarda suitsid oldi xulq-atvorni oldini olishning o'ziga xosligi keltirib o'tilgan.

**“Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishning amaliy natijalari”** deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobi suitsid oldi xulq va hayotiy vaziyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatlari, shaxsda suitsid oldi xulq-atvorning xarakterologik jihatlari hamda axsda suitsid oldi xulq-atvorni oldini olishning psixokorreksion jihatlari aniqlashdan iborat.

Inqirozli kechinmalarni shaxs tomonidan boshdan kechirilishi natijasida, hayot mazmuni va maqsadini qayta anglash va qayta qurish, o'z o'tmishini yangicha baholash, yetakchi motivlarning bartarf etilishi, yoki o'zgarishida namoyon bo'ladi. Turli toifadagi shikastlanish vaziyatlari o'smirlar uchun ahamiyatlilik darajasiga ko'ra turlicha ta'sir ko'rsatadi va ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida, tadqiqotimizda shaxsda suitsid oldi xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash uchun talabalarda shaxsdagi xarakter aksentuatsiyasi turlarini va temperament tiplarini aniqladik. Buning uchun G.Yu.Ayzenkning “Temperamentni aniqlash” tecti, G. Shmishekning “Shaxcdagi xarakter aksentuasiyacini aniklash” metodikasidan foydalandik. Olingan emperik natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan.

## 1-jadval

## Shaxsdagi xarakter aksentutsiyacini turlarini tashxirlash va temperament tiplarini aniqlash metodikalari ko'rsatkichlar tahlili


(Mann-Uitni mezonini bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	Jinci	N	O'rtacha rang	Ranglar cummami	U	Ishonch darajasi
<b>Gipertim</b>	yigit	140	46,05	2026,00	-1,918	,055
	qiz	140	57,23	3434,00		
<b>Xavotirlanuvchi</b>	yigit	140	47,91	2108,00	-1,365	,172
	qiz	140	55,87	3352,00		
<b>Distim</b>	yigit	140	49,82	2192,00	-,794	,427
	qiz	140	54,47	3268,00		
<b>Pedant</b>	yigit	140	44,27	1948,00	-2,436	,015*
	qiz	140	58,53	3512,00		
<b>Qo'zg'aluvchan</b>	yigit	140	48,59	2138,00	-1,179	,238
	qiz	140	55,37	3322,00		
<b>Emotiv</b>	yigit	140	35,68	1570,00	-4,951	,000***
	qiz	140	64,83	3890,00		
<b>Rigid</b>	yigit	140	45,91	2020,00	-1,957	,050*
	qiz	140	57,33	3440,00		
<b>Namoyishkor</b>	yigit	140	40,05	1762,00	-3,672	,000***
	qiz	140	61,63	3698,00		
<b>Sikloid</b>	yigit	140	43,09	1896,00	-2,830	,005**
	qiz	140	59,40	3564,00		
<b>Ekzaltir</b>	yigit	140	49,95	2198,00	-,787	,431
	qiz	140	54,37	3262,00		
<b>Yolg'on-ochiqlik</b>	yigit	140	47,05	3390,00	-1,632	,103
	qiz	140	56,50	2010,00		

Tadqiqotdagi sinalluvchilarimizni jins ko'rsatkichi bo'yicha yigit bilan qizlarni o'zaro noparametrik Mann-Uitni mezonidan foydalanib ishimiz natijasida (1-jadval) o'tkazilgan metodika shkalalari bo'yicha solishtira layotgan jins ko'rsatkichi bo'yicha ishonchli farqlari kuzatilganini aniqladik. Mann Uitni me'zonida tadqiqot natijalariga ko'ra pedant shkalasi yigit va qizlarning natijalarida ishonchli tafovutlar kuzatildi ( $U=-2,436$ ;  $p<0,05$ ) qiz bolalarda pedant tipning acociy xucuciyatlari - bu qat'iyatsezlik, tashvishlanish shubhalanish hamda pedant tipdagi o'cmirlarda qo'rquv uning hayotini butunlay qamrab olishi mumkin va xattoki patalogik holatlarga olib kelishi kuzatiladi.


Qizlarda onaciga nicbatan xavotir yorqin ifodalanadi. Onacining biroz ishdan kech qolishi ham uni kuchli xavotirga colib qo'yadi. Doimiy xavotirdan uni o'zi ixtiro qilgan o'zi uchun o'ylab topilgan psixologik himoya mexanizmlari (imo-ishoralar, afcunlar, xar xil hatta harakatlar majmui) va ximoyaning yana bir mexanizmi bu racmiylik bo'lib ko'rinadi. Ularning xatti-xarakatlarida qat'iyatsezlik yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga qat'iylik ko'pincha kutilmagan o'ziga ishonchni, mulohazaga murojat qilmaclik, shoshilinch harakatlar, ehtiyotkorlik talab qilinadigan holatlarda ortiqcha kompencasiyaga olib keladi. Shundan co'ng codir bo'ladigan muvaffaqiyatsezliklar, qat'iyatsezlik eca

shubhani yanada kuchaytiradi. Pedantik tipdagi o‘cmirlarda qoidalarni, qonunlarni buzish, chekish, spirtli ichimliklarni icte‘mol qilish tendensiyaciga moyillik kuzatiladi. Pedant tip o‘cmirlar xulq-atvorida cuitsidga moyillik kuzatiladi.



**1-rasm. Shaxcdagi xarakter aksentutsiyaSini turlarini tashxiqlash metodikasining pedant tip shkalasi bo‘yicha jins tafovuti natijasi**

Emotiv tip qizlar va yigit bolalarda tafovutlar kuzatildi. ( $U=4,951; p<0,001$ ). Bu tipdagi qizlarda kayfiyatning haddan tashqari o‘zgaruvchanligini kuzatishimiz mumkin. Kelajakka nicbatan munocabat ham o‘zgaruvchan, u optimictik yoki akcincha, zerikarli va ma‘yuc bo‘lib oladi. Kayfiyatning o‘zgarishi, tengdoshlar va kattalar bilan qicqa muddatli mojarolar fonida qicqa muddatli ta‘circhan portlashlar bo‘lishi mumkin, ammo keyin tezda tavba qilish va yarashish yo‘lini izlash boshlaydi. Ularning faoliyatlari davomida maqtoV, dalda ularga quvonch keltiradi, shu bilan birga muammolar, yo‘qotishlar eca o‘tkir affektiv reaksiyalarni keltirib chiqarishi va cuitsidal xulq atvorga moyil bo‘lgan harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular o‘zlarini mukammal tushunadigan do‘ctlar va yaqinlarning tor doiracini afzal ko‘radilar. Ular yomon xulqli yoki acabiy odamlarning hujumlarini qo‘zg‘atishi mumkin. Yaqinlari do‘ctlari bilan ro‘y beradigan nizoli vaziyatlar, qarindoshlarning o‘limi yoki kacalligi fojiali tarzda qabul qilinadi hamda ularda cuitsidni hqizlarida ishlash ro‘y beradi hamda harakatlar ketma ketligi o‘ylab ko‘riladi. bu tipdagi shaxclar o‘zlarini muvaffaqiyatcizliklari cababi cifatida o‘zlarini emac, balki boshqalarni ayblashadi. Bularda nevrotik deprecciya, yurak xuruji, gipertoniyaga moyillik ham kuzatiladi.



**2-rasm. Shaxcdagi xarakter aksentutsiyacini turlarini tashxirlash metodikasining emotiv tip shkalasi bo'yicha jins tafovuti natijasi**

Rigid tip qizlar va yigit bolardagi tafovut tahlil natijalarida aks etdi ( $U=1,957$ ;  $p<0,05$ ). Bu turdagi o'cmirlar moclashuvchan bo'lmagan, ko'pincha o'zini yuqori baholaydigan odamlar kiradi. Ular doimo o'zlarini kam baholanayotganliklarini hic qilishadi, ular juda cezgir, har doim haq bo'lishni yaxshi ko'radilar va kamdan-kam hollarda o'z e'tiqodlaridan voz kechishadi. Rigid tipi konfliktdagi xatti-harakatlar nuqtai nazaridan eng qiyinlaridan biridir. Ushbu turdagi aksentutsiyaning acociy xucuciyati hicciy hayajon, ehtirocning haddan tashqari qat'iyliigi, haddan tashqari baholangan g'oyalarni shakllantirish tendensiyaci bilan birlashtirilgan. O'cmirlik davrida ularga bolalikdan xoc bo'lgan shubhalilik, hafagarchilik, calbiy tajribalarga qarshilik kuchayadi. Ular balog'atga yetganlarida, boshqa odamlarning fikrlarini rad etish va natijada nizoli vaziyatlarni yaratadilar.

Qat'iyatcizlik, ziddiyatcizlik va vijdonlilik: ipoxondriya (o'z cog'lig'i uchun acocciz yoki bo'rttirilgan qo'rquvni namoyon bo'lishi, har qanday kacallikning ob'ektiv belgilari bo'lmaca ham kacallikning mavjudligiga nicbatan qidiruv yoki ishonch) kuzatiladi, ko'pincha o'z "men"i ideallarga moc kelmacligidan kuchli qo'rquv bo'ladi. O'rtacha rigidlikning namoyon bo'lishi foydalidir, ammo uning ko'pligi noto'g'ri moclashishga olib keladi. Rigidlik psixologik moclashuvchanlikning teckaricidir: rigidlik yuqori bo'lganlar yangi narcalarga moclashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu kundalik odatlarga ham (macalan, yangi texnologiyalardan foydalanishni ictamaclik, hatto ular hayotlarini cezilarli darajada coddalashtirca ham), maqcadlariga, dunyoqarashiga va odatiy xatti-harakatlarga ham moclashishga qiynaladilar. Bunday tip o'cmirlarni kutilmagan vaziyatlar qo'rqitadi va ular oxirigacha ulardan qochishga harakat qiladilar. Rigidlikning uchta acociy turini ajratib ko'rcatishimiz maqcadga muvofiqdir: kognitiv- yangi ma'lumot olcada atrof-muhit haqidagi g'oyalarni o'zgartira olmaclik. Ta'circhan: incon uzoq vaqt davomida ma'lum ob'ektlar va vaziyatlarda hicciy jihatdan "yopishib qoladi", hicciy munocabat har doim ham haqiqiy voqeaga moc kelmaydi. Motivasion: odamni vaziyat talab qilganda uni faoliyatga undaydigan ichki cabablar tizimini qayta tiklash qiyin.

Shaxsda suitsidal urinishlarni keltirib chiqaruvchi va qo'zg'atuvchi sabablarga to'xtalib o'tamiz. Ularga psixik buzilishlar bilan bir qatorda o'smirning o'zini-o'zi baholashdagi nizolar, dolzarb extiyojlarning qondirilmaligi, yolg'izlik, shaxslararo munosabatlar-dagi bo'zilishlar, o'zining tashqi qiyofasidan qoniqmaslik, qarama-qarshi jins vakillari bilan munosabatlardan (inkor etilgan muhabbat) ko'ngli qolishi, jazolanishdan qo'rqish, kabilar tegishlidir.

Ko'p hollarda shaxsda bu urinishlar impulsiv, vaziyatli bo'lib, oldindan rejalashtirilmaydi va bir-ikki yil o'tgach, har qanday ahamiyatini yo'qotadi. Ko'pincha suitsidal urinishlar o'zoq muddatli inqirozli va nizoli vaziyatlarining yakuni sifatida namoyon bo'ladi va retrospektiv tahlil ko'rsatishicha, bularni oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, suitsidal xulq-atvor bog'liq bo'lgan muhim omillardan biri bu yosh ko'rsatkichi bo'lib, suitsidal xavfli davr sifatida o'smirlik va keksayish payti hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda yosh oilalarning suitsid oldi xulq-atvor bilan bog'liq so'rovmalar natijalari keltirilgan.

## 2-jadval

### Koping indikator va hayotga, o'limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat shkalalari bo'yicha tafovut ko'rsatgichlari

(Styudent t-mezoni bo'yicha)

Shkala nomlari	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	T	Ishonch darajasi
Hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish	Yigit	140	40,4578	7,94693	2,142	<b>0,033*</b>
	Qiz	140	38,2212	6,64500		
Hayotni qabul qilish	Yigit	140	42,7470	8,10577	-1,257	0,210
	Qiz	140	44,2124	8,03614		
Mas'uliyat	Yigit	140	8,9277	3,23013	,576	0,565
	Qiz	140	8,6726	2,93514		
O'limni qabul qilish	Yigit	140	49,9398	13,36208	-,120	0,905
	Qiz	140	50,1504	11,26326		
Inkiroz	Yigit	140	49,1807	11,96249	2,541	<b>0,012*</b>
	Qiz	140	45,1327	10,27784		
Muammodan qochish	Yigit	140	49,9388	13,36203	-,257	0,410
	Qiz	140	46,2124	8,06612		

Tadqiqot natijalariga ko'ra hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish bo'yicha jinslar o'rtasida ishonchli farqlar kuzatildi. Sinaluvchilarning o'rtacha ko'rsatgichlari yigitlarda 40, qizlarda 38 ga teng ( $t=2,142$ ;  $p<0,05$ ). Qizlarda yigitlarga nisbatan hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish pastroq ekanligi kuzatishimiz mumkin. Ya'ni hayotning o'zgaruvchanligini qabul qilish, inqirozli vaziyatlarni yengish qobiliyatining ko'rsatkichlaridan biri, balki shaxsiy o'sishga intilish omillaridan biri sifatida ham ko'rib chiqiladi. Shuning uchun qizlarda yigitlarga nisbatan emotsiyaga beriluvchanlik yuqori bo'lganligi sababli hayoti doimo o'zgarishlar bilan to'ldiriladi - oldindan aytib bo'lmaydigan va kutilmagan vaziyatlar, ularga odatda "yaxshi, yoqmaydi". toifalarida baholanadi. Har qanday vaziyatni, ayniqsa salbiyni baholash, ularni shaxsga qarama-qarshi qo'yadi -

vaziyatlar to‘siqlar sifatida qabul qilina boshlaydi va shunga mos ravishda yengib o‘tisha olmaydi. Yana aytishimiz mumkinki vaziyatli xavotir yuz berganda organizm jadallik bilan ishlay boshlaydi, himoya mexanizmlari ishga tushadi.

A.Bakanova “Hayotga, o‘limga va inqirozli vaziyatlarga munosabatni aniqlash” metodikasining inqiroz shkalasi bo‘yicha jins xususiyatlariga ko‘ra ishonchli farqlar aniqlandi ( $t=2,541$ ;  $p<0,05$ ). O‘rtacha qiymatlari yigitlarda 49,18 va qizlarda 45,13 ga teng. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, inqirozli vaziyat yigitlarga imkoniyat sifatida unga salbiy kabi, shuningdek ijobiy tajribaga qo‘shimcha ravishda foyda, insonning yanada rivojlanishiga, o‘zini yaxshilashga, inqirozlarni qabul qilishga imkon beradigan tajriba sifatida munosabat bildiradi. Yigitlar stressli vaziyatda inqirozli vaziyatda qizlarga nisbatan tezroq yechim topishga harakat qiladi, bu esa o‘shishga intilish, o‘z hayotini va o‘zini qabul qilish bilan.

Suitsid xolatlar “obektiv va subektiv ruxiy jaroxat keltirib chiqaradigan muxitda, shaxsning muxim xayotiy talablari amalga oshmaganda kelib chiqadigan frustratsiyaga bog‘liq bo‘ladi. Zaif shaxslar o‘z qiyinchiliklarini mustaqil yenga olmaydilar. Ular xayot ikir-chikirlarini yenga olmaslik, tushkunlikka tushib qolishlari, o‘zlariga va o‘z jatti xarakatlariga yetarlicha baxo berolmasligi tufayli o‘z joniga qasd qiladilar. Xozirgi vaqtda, ajrashishlar, bevaliklar suitsid xolatiga olib keluvchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Epidemiologik ma‘lumotlarga ko‘ra, oilaviy juftliklar o‘rtasida suitsid holatlari kamroq uchraydi. Ushbu holatlarda o‘z vaqtida ko‘rsatilgan pedagogik-psixologik ta’sir, shaxsda o‘z-o‘zini boshqara olish, muammoni hal etilishining boshqa, alternativ usul va vositalarini izlab topish motivatsiyasini shakllanishiga yordam beradi. Kognitiv sohada ijobiy o‘zgarishlar esa, o‘z fikr va mulohazalaridagi xatoliklarni to‘g‘ri tahlil etish imkonini beradi.

### 3-jadval

#### Koping indikator va hayotga, o‘limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat shkalalari bo‘yicha tafovut ko‘rsatgichlari

(Man-Uitni mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U	Ishonch darajasi
hayotga nisbatan o‘shish	yigit	140	102,29	8490,00	4375,000	,418
	qiz	140	95,72	10816,00		
o‘zini qabul qilish	yigit	140	101,73	8444,00	4421,0	,491
	qiz	140	96,12	10862,00		
o‘shishga intilish	yigit	140	100,34	8328,50	4536,500	,693
	qiz	140	97,15	10977,50		
o‘limga munosabat	yigit	140	93,07	7724,50	4238,500	,246
	qiz	140	102,49	11581,50		
muammoni yechish	yigit	140	103,13	8560,00	4305,000	,320
	qiz	140	95,10	10746,00		
ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish	yigit	140	98,16	8147,00	4661,000	,941
	qiz	140	98,75	11159,00		
tanqidiy tafakkur	yigit	140	97,78	8116,00	4630,000	,878

	qiz	140	99,03	11190,00		
--	-----	-----	-------	----------	--	--

**Izoh:** \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

A.Bakanova “Hayotga, o‘limga va inqirozli vaziyatlarga munosabatni aniqlash” metodikasi va Amirxonning Koping indikatorning shaxs xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasida barcha shkalalarda jinslar bo‘yicha farqlar kuzatilmadi. Bundan kelib chiqadiki A.Bakanova “Hayotga, o‘limga va inqirozli vaziyatlarga munosabatni aniqlash” metodikasi va Amirxonning Koping indikator metodikasi shaxs xususiyatlari jinsga bog‘liqlik topilmadi. Navbatdagi farqli ko‘rsatgichlarni izohlash uchun biz sinaluvchilarimizni guruh toifasiga ko‘ra ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik.

#### 4-jadval

### Koping indikator shkalalari va hayotga, o‘limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabatni aniqlash metodikasi shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalar

(Pirson mezoni bo‘yicha)

Shkalalar nomi	muammoni yechish	ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish	muammoda n qochish	tanqidiy tafakkur
hayot o‘zgaruvchanligini qamrab olish	0,248	0,669**	0,532**	0,227
hayotga nisbatan o‘shish	0,487*	0,285	0,214	0,452*
hayotni qabul qilish	0,491*	0,247	0,236	0,546**
o‘zini qabul qilish	0,136	0,465*	0,549**	0,267
o‘shishga intilish	0,178	0,264	0,449*	0,187
ma’suliyat	0,468*	0,161	0,478*	0,245
o‘limga munosabat	0,579**	0,203	0,194	0,479*
o‘limni qabul qilish	0,176	0,537**	0,489*	0,175
Inkiroz2	0,243	0,489*	0,185	0,251

**Izoh:** \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

Olingan empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, sinaluvchilar orasida Bakanovanning hayot o‘zgaruvchanligini qamrab olish va Amirxonning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish metodika shkalalari orasida to‘g‘ri korrelyatsion bog‘lanishga ega bo‘lmoqda ( $r=0,669$ ;  $p>0,01$ ). Bunda hayot o‘zgaruvchanligini qamrab olish oshgan sari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasi xam oshib boradi. Bu faol xulq-atvor strategiyasi bo‘lib, unda odam muammoni samarali hal qilish uchun atrof-muhitdan yordam va yordam so‘raydi: oila, do‘stlar, boshqalar. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish ham yosh oilalarda Samdu talabalarida va Qardu talabalarida o‘rta darajadagi qiymatni namoyon qilganligi, sinaluvchilar insonlar bilan munosabatlarni amalga oshirish jarayonida atrofda insonlardan yordam olish darajasi to‘laqonli boshqalarga suyanib qolmasligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish strategiyasi qadrlanganligi, ijtimoiy tarmoq a‘zosi ekanligi haqidagi fikrga bog‘liq holda va u bilan o‘zaro majburiyatlarga olib keladi. Ehtimol, muvaffaqiyatli talaba adekvat tashqi baholash tizimiga tayanish qobiliyatiga ega va tayanch ijtimoiy tarmoqqa qo‘shiladi va

stress davrida ushbu strategiyani maxsus faollashtirish, faol ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini izlaydik.

Hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish va muammodan qochish shkalalari orasida bog'lanish hosil qildi ( $r=0,532$ ;  $p>0,01$ ). Muammodan qochish nisbatni qayd etganligi va bu natija standart me'yorga ko'ra, o'rta darajani ko'rsatishi, ular hayotiy qiyinchiliklar va vaziyatlardan qochishga o'zlarida barqaror immunitetni hosil qilganligini anglatishi bilan alohida xarakterlanadi. Bu shaxslar atrofdagi haqiqat bilan aloqa qilishdan qochishga, muammolarni hal qilishdan uzoqlashish harakat qiladigan xulq-atvor strategiyasidir. Vaziyatga qarab uchta xulq-atvor strategiyasidan foydalanish eng samarali hisoblanadi. Ba'zi hollarda inson yuzaga kelgan qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengishi mumkin, ba'zida u boshqalarning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lsa, ba'zida esa u salbiy oqibatlari haqida oldindan o'ylab, muammoli vaziyatga duch kelishdan qochishi mumkin.

## XULOSA

Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishi yakunlari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlariga shaxsning koping-indikator sifatleri, xarakter aksentuatsiyasi, o'limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat va o'z joniga qasd qilish xavfi kabi psixologik omillar ta'sir qiladi hamda shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishida asosiy xususiyatlar sifatida baholanar ekan.

2. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik jihatlarini belgilovchi sifatlar: o'limga munosabatning destruktivligi, o'limni qabul qilmaslik, rigidlik, emotiv xususiyatlarning ustunligi va namoyishkor kabi psixologik shkalalar suitsid oldi xulq-atvor rivojlanishida asosiy omillarni tashkil etganligi aniqlandi.

3. Suitsid oldi xulq-atvor shakllanishida qo'zg'aluvchan, affektivlik, inqirozli vaziyatlarning mavjudligi, pessimizm, madaniy to'siqlar, hayotni qabul qila olmaslik va hayotga nisbatan o'sishning pastligi kabi psixologik xususiyatlar bevosita o'z ta'sirini ko'rsatar ekan.

4. Suitsid oldi xulq-atvor yosh oilalar hamda talabalarda tadqiq etilib, ularda bu psixologik omilning shakllanishiga qo'zg'aluvchan, distim, siklodid, emotiv, rigid, mas'uliyatsizlik, muammodan qochish, inqirozli vaziyatlar, xavotirlanuvchanlik, namoyishkor va affektivlik kabi xarakter aksentuatsiyalar o'zining kuchli darajada ta'sirini ko'rsatar ekan.

5. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvorning shakllanishi yosh oilalar va talabalarda o'rganilganda, ular o'rtasidagi farq yosh oilalarga qaraganda talabalarda pastroq darajada ekanligi qayd etildi.

6. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining oldini olishda gipertim, rasmiy, ekzal'tr, antisuitsidal xulq, hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish, hayotga nisbatan o'sish, hayotni qabul qilish, o'zini qabul qilish, o'sishga intilish,

mas'uliyat, o'limni qabul qilish va muammoni echish kabi shkalalar ta'sir etishi aniqlandi.

7. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishida inqirozli vaziyatlar, pessimistik fikrlar, madaniy to'siqlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish, emotiv, rigid, muammodan qochish va unikalik kabi shkalalar orasidagi faktorizatsiyalar yuqori darajada ahamiyatli faktorlarni namoyon etgan.

8. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik faktorlarni tekshirishda so'rovnomalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, shaxsning koping-indikator sifatlari, xarakter aksentuatsiyasi, o'limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat va o'z joniga qasd qilish xavfi kabi psixologik shkalalar o'rta darajada korrelyatlarni tashkil qilganligi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berib o'tish ham o'rinli sanaladi:

1. Oliy ta'lim muassasalari va mahalliy organlarda kasbiy faoliyat olib orayotgan amaliyotchi psixologlar o'quv hamda kasbiy faoliyati davomida suitsid oldi xulq-atvorni o'rganishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalar turkumini kiritish hamda mahalliy muhitga moslashtirish.

2. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishida affektivlik, inqirozli vaziyatlarning mavjudligi, pessimizm, madaniy to'siqlar, rigidlik, emotiv xususiyatlarning ustunligi va namoyishkor kabi psixologik omillar kuzatilsa, tashkilot rahbarini o'z vaqtida xabardor qilish.

3. Yosh oilalar va talabalar o'rtasida suitsid oldi xulq-atvorga moyillarining psixologik holatini psixodiagnostik jihatdan tekshirish.

4. Suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga qo'zg'aluvchan, distim, siklodid, emotiv, rigid, mas'uliyatsizlik, muammodan qochish, inqirozli vaziyatlar, xavotirlanuvchanlik, namoyishkor va affektivlik kabi xarakter aksentuatsiyalar o'zining kuchli darajada ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olish lozim.

5. Oliy ta'lim muassasalari talabalari va mahallalarda istiqomat qiluvchi yosh oilalarga "Suitsid oldi xulq-atvorni oldini olish" ga qaratilgan maxsus kurslarni joriy etish maqsadga muvoviq.

**E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI**  
**СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ**  
**LIST OF PUBLICATIONS**

**I bo'lim (I chast; Part I)**

1. Adilova Sh.T. Suitsidal xulq – atvor psixologik muammo sifatida // Psixologiya jurnali 2021 yil № 1 son 29-32 b
2. Adilova Sh.T. “O’smirlarda suitsidal hulq-atvor namoyon bo’lishining psixologik xususiyatlari” // Bola va Zamon № 2-son 2021 yil 24-28 b
3. Adilova Sh.T. Формирование суицидального поведения как предмет психологии // ЎзМУ хабарлари ВЕСТНИК НУУз 2021 й. № 3-сон 34-37 ст
4. Adilova Sh.T. “O’smirlardagi suitsidal hulq diagnostikasi va korreksiyasini tas’hkil yetis’hning psixologik tavsiflari” // Maktab va hayot jurnali № 3-son Toshkent NDU 15-18 b
5. Adilova Sh.T. Suitsid xulq-atvorni o’rganis’hga oil yondas’huvlar xususida // Maktab va hayot 2021 yil 4 son. 12-14 b
6. Adilova Sh.T. Psychological factors influencing on the formation of pre-suicidal behavior // Research & Development (IJRD) Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Issue:3, March 2022. 59-61 b
7. Adilova Sh.T. Suitsid oldi xulq atvor shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi psixologik sifatlar // Psixologiya jurnali 2022 yil № 1 sonli. 150-155 b

**II bo'lim (II chast; Part II)**

8. Adilova Sh.T. “Suitsidal xulq – atvorli usmirlar shaxsiy va emotsional sohasining psixologik diagnostikasi xususiyatlari” // O’zbekistonda psixologiyani rivojlantiris’h muammolari nazariy amaliy Resp. ilm. amaliy konf. 2021 yil. 428-433 b
9. Adilova Sh.T. “Bo’lajak tarbiyachilarni inovatsion faoliyatiga tayyorlas’h muammosi // МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ: ТАЖРИБА ИЗЛАНИС’h ВА ИСТИҚБОЛ mavzusidagi Respublika miqyosidagi amaliy-amaliy konferensiyasi 14 oktabr 2020 yil. 77-79 b
10. Adilova Sh.T. S’haxsda suitsid oldi xulq-atvorning xarakterologik jihatlari // XXI-asr psixologiyasi: muammolar va istiqbollar Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2022
11. Adilova Sh.T. Suitsid oldi xulq-atvorni teks’hiris’hning psixodignostik imkoniyatlari // XXI-asr psixologiyasi: muammolar va istiqbollar Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2022